



MAKTAB TA'LIMIDA TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA XARITALARDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Sabitova Kamola

Nizomiy nomidagi TDPU Ta'lim-tarbiya nazariyasi va
metodikasi yo'nalaishi doktoranti

sabitovakamola4@gmail.com

+998900177374

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14685755>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Yanvar 2025 yil
Ma'qullandi: 15- Yanvar 2025 yil
Nashr qilindi: 18- Yanvar 2025 yil

KEY WORDS

*ta'lim, metod, harita, illustratsiya,
kontur xarita, maket, ko'rgazmali
qurollar, grafik, klassifikatsiya,
makon, voqea, kompas,
texnologiya.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada tarix darslarini samaraliy
tashkil etishda ko'rsatmali qurol sifatida xaritalardan
foydalanish tartibi, tarixiy xaritalar turlari va ularning
ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan. Bundan
tashqari, maktab ta'limida tarix darslarida
o'quvchilarini xarita bilan ishlani o'rgatuvchi
zamonaviy pedagogik metodlar va ulardan kutilgan
natijalar haqida fikr yuritilgan.*

Ta'limni rivojlantirishda yangi innovatsion jarayonlar, axborot almashuvining tezlashuvi, shuningdek, ta'lim tizimiga yangi texnologiyalarning joriy etilishi buguning o'qituvchilardan kreativ fikrlash, yangicha metodlarni ishlab chiqishni, izlanuvchanlik va tadqiqotchilikni talab etmoqda. Chunki, bugungi maktab o'quvchilarini darsda faolligini oshirish, yangi g'oyalar, yangi metodlar, yangi innovatsion texnologiyalarni o'zida jamlagan, o'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantiruvchi metodlarni yaratishni taqozo etadi.

Ma'lumki, tarix fanini biz ko'rsatmali qurollardan haritasiz tasavvur etolmaymiz.

Xarita (Karta so'zi aslida lotincha "chartes" - xartes so'zidan olingan bo'lib, yozuv uchun mo'ljallangan papirus varag'i degan ma'noni bildiradi) - bu tarixiy hujjat bo'lib, voqealar davomiyligi haqida hikoya qiluvchi, sodir bo'lgan voqealar, vayron bo'lgan va yana tiklangan shaharlar, daryo o'zanlarining o'zgarishi, unutilgan qadimgi sug'orish inshootlari, xalqlar tarixini hududlar bilan bog'lab o'rganadi.

Tarixiy xaritalar, asosan, o'tmishdagi voqea va hodisalarni tasvirlab, jamiyat tarixidagi muhim voqealarning geografiya bilan o'zaro bog'liqligini o'rganadi. Tarixiy kartalar qadimgi madaniyat o'choqlari, davlatlar, ijtimoiy harakatlar, savdo yo'lari va boshqalarni ko'rsatishga xizmat qiladi.


Tarixiy haritalar quyidagi turlarga bo'linadi.

- arxeologik
- etnografik
- tarixiy-iqtisodiy
- siyosiy-tarixiy
- harbiy-tarixiy

•tarixiy-madaniy

Bu tarmoqlar orasida tarixiy xaritalar umumiy ham bo'lib, tarixiy jarayonlarni bir butunlikda tasvirlaydi. Alohida hollarda esa voqea va hodisalar yoki fakt (dalil)laring alohida tomonlarini ko'rsatadi. Ular mustaqil (ma'lumot beruvchi va o'quv haritalari hamda atlaslardir) yoki bezakli ahamiyatga ega bo'lgan kartalarga bo'linishi mumkin.¹

Dars jarayonida haritadan foydalanishdan avval o'quvchilarni yer shari tomonlarini qay darajada bilishini "Kompas" metodi orqali aniqlab olish tavsiya qilinadi. Bunda bir o'quvchini dars honasi markaziga turg'azib unga qolgan o'quvchilar tomonlarni birma-bir yer shari tomonlar nomini aytishadi. Masalan, "janubiy-g'arb", "shimoliy-qutub" kabi. Markazdagi o'quvchi esa aytilgan tomonni kompas kabi ko'rsatib beradi. Bu metod o'quvchilarda tarixiy makonni koordinatasini aniq ko'rsatishga o'rgatadi.



Odatda tarixiy haritalarining to'rt xili ko'rinishi mavjud:²

- 1) *Tarixiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichidagi ahvolni aniqlovchi umumiy xarita.*



2) *Sharhlovchi xarita- ketma-ket tarixiy voqealar tasvirlanadi.* Masalan: "Rossiya imperiyasining 1700-1914- yillardagi o'sishi yoki "Buyuk ipak yo'lidan yuborilgan savdo mahsulotlari xaritasi"

3) *Mavzuli (tematik) ayrim voqealarga bag'ishlangan xaritalar.* Masalan: "1525-yilgi Germaniyadagi dehqonlar urushi"

4) *Xarita-sxemalar karitagrafik tasvir va geografik asos elementlari soddalashtirib tasvirlangan xarita.* Unda geografik koordinata kesishmalari ko'rsatilmaydi. Xarita-sxema obyekt (voqea, hodisa yoki jarayon) haqida umumiy tasavvur beradi va uning eng muhim xususiyatlarini ko'rsatadi. Xarita-sxemada maxfiylik bo'lmaydi, lekin, ayrim vaqtlarda masshtab ko'rsatilmasliligi mumkin.



Quyida xarita orqali ijodiy ishni tashkil qilish uchun topshiriqlardan namunalar keltiriladi.³ Masalan,

1. Qadimgi Sharqda joylashgan muzey shaharlarning xaritasini shakllantiring kabi.
2. «Afsonalar va arxeologiya» mavzusida xarita ishlash. (Unda qadimgi yunon afsonalarida tilga olingan shaharlarning hozirgi davlatlar hududidagi holati tasvirlanishi kerak.)
3. XV asrda Vizantiyani Samarqand bilan bog'laydigan savdo yo'li xaritasini ishlash.
4. Jaloliddin Manguberdi zabt etgan qal'a va shaharlarning xaritasini ishlash.
5. XX asr boshida O'rta Osiyoda faoliyat olib borgan jadid maktablarining xaritasini ishlash.

Tarix darslarda darslikdagi xaritalar doimiy ravishda ishlatiladi. Devor xaritsida namoyish qilish ushbu darslikdagi ob'ektlarni toppish, davlatlar hududini belgilsash kabi vazifalarni bajarishni talab qiladi. Shuning uchun tarix fani o'qituvchilariga mavzuni xaritada aks ettirish bilan birga izohlash tavsiya etiladi, masalan: A. Temur harbiy yurishlari, arab xalifaligiga yurishlari harakatlanish yo'nalishlari ko'rsatiladi.

*Tarix dars jarayonida xarita bilan ishlash turlari:*⁴

- tarixiy xaritada davlat chegaralari, jang joylari, qo'zg'olon joylari va boshqalarni ko'rsatish va tasvirlash;
- davlatning geosiyosiy holatini tasvirlab berib;
- davr xaritalarini taqqoslang, ko'rilgan o'zgarishlar asosida hududiy va siyosiy o'zgarishlarning mohiyati to'g'risida xulosalar chiqaring;
- atlas, devor xaritasi yoki xotira yordamida kontur kartasidagi vazifalarni bajaring;
- xaritada toping va afsonaga kiritilgan belgilarni nomlang;
- kattaroq maydonni o'z ichiga olgan kichik xaritalarda tasvirlangan hududni toping.

Yuqoridagi kabi xarita bilan ishlash topshiriqlarini o'qituvchilar takrorlash, umumlashtiruvchi va bellashuv darslar turlarida foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Hulosa o'rnida, tarixni o'qitishda o'ziga xos vizual vosita sifatida tarixiy xaritalardan foydalaniladi. Tarix o'qituvchilar darsda asosan butun sinfga namoyish qilish uchun devoriy haritalardan foydalanadilar. Chunki, ular tarixiy-geografik tasvirlarning nisbatan katta ko'lamli ob'ektlarni ko'rsata oladi. O'qituvchilar individual va mustaqil ishlarida atlaslardan foydalanadilar. O'qituvchilarga ustozlar tarixiy o'quv xaritalarni to'plamlarini tizimlashtirgan

holda o'rgatadilar. O'quvchilarda yangi xaritani shakllantirish orqali xaritalar va xarita-diagrammalar ob'ektlarni tarixiy makonda lokalizatsiya qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalar rivojlantiradi. Bundan tashqari, tarix darslarida ijodkorlik ruhini uyg'otishda xarita bilan ishlash ham samarali natija beradi. Buning uchun xarita bilan ishlash jarayonida u yoki bu voqealar rivojini kuzatishni o'rgatish, o'quvchilar ongida tarixiy hodisalarga nisbatan sinchkovlik ko'nikmasini uyg'otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Saidboboyev Z.Tarixiy geografiya va kartografiya. Shafolat Nur Fayz. Toshkent: 2020. 60 b. (27-bet)
- 2.Noriyeva N.Q. Tarix fanini o'qitishda xaritalar bilan ishlashning o'ziga xos metodikasi «Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya» nomli ilmiy-amaliy konferensiya <https://doi.org/5281.7514608> January 9, T.:2023. 10 p
- 3.Toxirion A.Sh. Tarix darslarida o'quvchilar faolligini oshirish masalalari: tajriba, izlanish. Zamonaviy ta'lim T.:2015, 7 b
4. Ergashev Sh. 10-sinf Jahon tarixi. Darslik Tespublika ta'lim markazi T.:2022 (180 b) 98 b.

INNOVATIVE
ACADEMY